

## **ARAB TILIDA TERMIN YASASH USLUBLARI VA DERIVATSIYANING AHAMIYATI**

**Saloxiddin Qurbonov**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

+998932583201

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada terminlarni arablashtirish mavzusi doirasida tadqiqot olib borilgan. Xususan, klassik arab tilshunoslari hamda zamonaviy tilshunoslar tomonidan arab tilini saqlab qolish uchun arabcha bo'lmagan terminlarni moslashtirish va arab tilining fonologik, morfologik va semantik tizimlarining potentsial qobiliyatlarini oshirishga yo'naltirilgan xorijiy terminlarni moslashtirish uslublari ko'rib chiqildi. Maqolada arab tilini to'xtovsiz modernizatsiya qilishning eng samarali usuli hisoblangan derivatsiya uslubiga alohida to'xtalib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** arab tili, terminologiya, tarjima uslubi, ishtiyoq, majoz, naht, ta'rib, tilining fonologiyasi, morfologiya, semantika.*

### **ABSTRACT**

*In this article, a study was conducted within the framework of the topic of Arabization of terms. In particular, classic Arabic linguists and modern linguists considered methods of adapting non-Arabic terms to preserve the Arabic language and adapting foreign terms aimed at increasing the potential capabilities of the phonological, morphological and semantic systems of the Arabic language. The article focuses on the method of derivation, which is considered the most effective method of non-stop modernization of the Arabic language.*

***Key words:** Arabic language, terminology, translation method, enthusiasm, metaphor, Naht, interpretation, phonology of the language, morphology, semantics.*

### **KIRISH**

Turli xalqlar tomonidan ishlab chiqilgan terminlar va zamonaviy neologizmlar har qanday tilda so'zlashuvchilar tomonidan ularning haqiqiy ma'nosini anglamay turib qabul qilinmaydi. Klassik arab grammatikachilari arabcha bo'lmagan terminlarni lug'atlarda mustahkamlab, o'zlarining asl tillariga o'girib, bu muammoni arab tilidagi teng manoga ega muqobil terminlarni yaratish va ularni arabchaga moslashtirishning mavjud usullaridan foydalanib hal qilishni osonlashtirdilar. Klassik arab lug'atshunoslari arab lug'atini yaratishning dastlabki muvaffaqiyatli urinishlarida asl arabcha so'zlarni boshqalardan ajratish ustida qattiq ishlagan. Xalil ibn Ahmad al-Farohidiy o'zining lug'atida (Al-'Ayn) arab bo'lmagan so'zlar haqida aniq gaplarni aytgan [1]. Boshqa arab mumtoz lug'atlarida ham “الدخيل” (ad-daxiy) [boshqa tildan

qabul qilingan; arabcha bo'lmagan so'z] va “المعرب” (al-mu'rrib) [arab tiliga o'girilgan; arablashtirilgan] so'zlarga ishora qilingan. Masalan, arabcha lug'atlarda so'zlarning etimologiyasini belgilash uchun maxsus terminlar ishlatilgan: “صاح” (sihaah) [arabcha asl so'z] va “المولد” (al-muvvald) [arab tili qoidalariga ko'ra arab tilidan olingan so'z, lekin eski arablar tomonidan ishlatilmagan] [2]. “صارف” (saarif) [almashtiruvchi – “صرف” dan, yo'naltirmoq; aylanmoq; pul almashtirmoq]; “صاقل” (saaqil) [burnisher; jilolovchi – “صقل” (saql)dan [sayqallamoq; yorqinroq qilmoq; yorqinroq qilmoq]. Bunday misollar shuni ko'rsatadiki, mumtoz arab grammatikachilari yangi termini semantik jihatdan bog'langan aniq ildizini tanlab, so'ngra yaratilgan terminlarga arab tiliga o'zlashtirilishi va moslashish qobiliyatini berish uchun arabcha qolip (فعل) bilan o'lchanadigan va ikkilamchi ishlatish qobilaytiga ega bo'lishiga alohida ahamiyat qaratganlar.

**Tadqiqot metodi.** Maqolada so'nggi tadqiqot nashrlari tahlili berilgan. Tadqiqot metodologiyasida tizimli yondashuv, kuzatish, taqqoslash, mavhumlashtirish, ideallashtirish va guruhlash usullari qo'llanilgan.

### **Tahlil va natijalar.**

Arab grammatikachilari yangi xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng xavfsiz usullaridan foydalangan holda arab tilini saqlab qolishga qattiq harakat qilishgan. Bu holat o'tmish talablaridan kelib chiqqan. Arablarning umumbashariy sivilizatsiyasi arab tilining ilmiy va madaniy terminlarni yaratish va o'ziga moslashtirish qobiliyatini namoyon qilgan. Biz terminologik tushunchalarni arab tiliga moslashimiz, eng munosib yo'llarini o'rganishimiz, eski va zamonaviy arab grammatikachilari qo'llagan uslublar bilan xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning eng samarali klassik va zamonaviy usullarini ko'rsatishimiz kerak.

Klassik usullar quyidagilardir:

1.1. Al-ishtiqoq. Bu arab tilshunoslari tomonidan boshqa so'zdan yangi so'z yasash uchun ishlatiladigan morfologik tushuncha bo'lib, bunda yangi hosil qilinayotgan so'z bilan asos so'zning o'zak harflari va tub ma'nosi bir xil bo'ladi [3]. Arabcha ishtiqooq-hosila amalda boshqa so'zdan yangi so'z hosil qilishni anglatadi; ikkala so'zning o'zagi bir va umumiy leksik ma'nosi bir bo'lib, lekin morfologik jihatdan bir-biriga o'xshamaydi. Ularning lug'aviy ma'nosi shu ikki so'zda takrorlangan ildizning asl elementlari bilan ifodalanadi. Grammatik ma'nolar yangi hosila so'zlarning fonetik tuzilmalari qofiyalangan qoliplarga ko'ra turlicha bo'ladi, masalan,

(1) “قطع” (qata'a) [kesdi] “قطع” (qat'un)dan olingan va “فعل” (fa'ala) qolipi bilan shakllangan;

2) “قطع” (quti’a) [kesildi] “قطع” (qat’un)dan olingan va “فعل” (fu’ila) qolipi bilan shakllangan;

Huddi shu o’zakni “فاعل” (faail) vazniga solsak “قاطع” (qaati’) kesuvchi degan so’z hosil bo’ladi; Bu yo’l umumiy yoki kichik ishtiqoq-hosilalanish deyiladi va uning boshqa turlari ham mavjud:

(1) katta ishtiqoq;

(2) eng katta ishtiqoq;

(3) an-naht (aralash tirish). Aytish mumkinki, hosila arab tilining o’ziga xosligini saqlab qolishini ta’minlaydi. Chunki u xorijiy terminlarni arabcha qoliplar to’plamiga muvofiq shakllantirishni talab qiladi. Arablashgan terminlarning arabchaga o’zlashtirilishini tekshirish mezoni sifatida ishtiqoq qoliplari to’plamlari ishlatilgan [4].

Amalda, arab tilining flektiv morfologiyasi tilga mos terminlarni olishning cheksiz imkoniyatlarini taqdim etishga qodir. Bu ajoyib trikonsonant ildiz tizimiga bog’liq. Ildizlar morfologik qolipga ko’ra yuqori flektiv bo’lish qobiliyati tufayli o’ziga xos ma’nolarni olib, ko’plab verbal yoki nominal shakllarni hosil qila oladi, masalan: “درس” (darsun) [o’rganish] ildizidan – “درس” (darasa) [o’rgandi], “درس” (durisa) [o’rganildi], “درس” (o’rganuvchi); “درس” (dars) va “دروس” (darslar) [5] kani so’zlar hosil bo’lganiga o’xshash.

Yana bir usul:

1.2. At-ta’rib (arablashtirish).

Arablashgan terminlar deganda arab tili qoidalari asosida paydo bo’lgan yoki arabcha so’zlarga o’xshash so’zlarni tushuniladi [6]. Rahem Ali AL-Fuadiy arablashtirishni arabcha fonologiya va morfologiya qoidalarini qo’llash orqali xorijiy so’zlarni moslashtirish va arab tilida xorijiy terminlarni fonetik moslashtirish metodini qo’llash jarayoni deb ham ta’riflash mumkin deya izoh bergan. Masalan, “درهم” (dirham) (forscha diramid) fonetik moslashgan; “صيقل” (sayqal) (burnisher – “فيعل” (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashuvdir; Shu vaznga yana bir misol “صيرف” (sayraf) [pul ayirboshlovchi] so’zi, bu “فيعل” (fay’al) qolipi bilan shakllangan morfologik arablashgan so’zdir.

Shuni ta’kidlash kerakki, klassik arab tilshunoslari arablashgan terminlarni boshqa tildan o’zlashtirilgan – kalka uslubida olingan terminlardan aniq ajratib ko’rsatishgan. Bunday kalka uslubida qabul qilingan so’zlarga hozirgi arab tilidan quyidagilarni misol qilish mumkin. Masalan, radio, isitgich, telefon va svetofor kabi so’zlar kalka yo’li bilan moslashtirilgan va arabcha “ميداع” (miyzaa) [radio]; “مدفأة” (midfaa) [isitgich]; “هاتف” (haatif) [telefon]; “إشارة مرور” (ishaarotu muruur) [svetofor] degan ko’rinishga kelgan.

Bu ta'riflar arablashtirishga ko'p asrlar ilgari berilgan, ammo ular arab tilining xorijiy terminlarni o'z qoidalariga ko'ra moslash qobiliyatini ko'rsatadi. Shuning uchun bu hodisaning zamonaviy ta'riflari klassik arab filologlari tomonidan berilgan ilmiy dalillarga qarshi tura olmaydi yoki ularni inkor eta olmaydi. Arablashtirish deganda xorijiy terminlarni arab tili qoidalariga moslashtirish tushuniladi. Arab tilshunoslari tomonidan shakllantirilgan ushbu qoidalarga ko'ra arablashtirish deganda tilning fonologik, morfologik va tizim qoidalarini xorijiy terminlarga qo'llash orqali arabcha bo'lmagan terminlarni arab tiliga moslashtirish jarayoni tushuniladi [7].

Arablashtirishning eng muhim savollaridan biri arablashgan so'zlar arabchaga assimilyatsiya qilinishi mumkinmi yoki ular arab tilining ishtiyoq tizimiga ko'ra mavjud bo'lishi mumkinmi? Klassik arab grammatikachilari bu muammoni o'rganib, kerakli qoidalarni o'rnatish orqali hal etishgan. Ibn Jinniy arablashgan so'zlar faqat arabcha qolip to'plami orqali iste'mol qilgandagina tasdiq topishini aytgan [8]. Va u bu fikrini arablar arabchaga qabul qilingan terminlarni vaznga solib qayta ishlatgani bilan isbotlagan. Maslan dirham so'zi "mudarham" shaklida ishlatilgan.

O'n yildan oshiq vaqt davomida arab davlatlarining til akademiyalari klassik usullarga muvofiq xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning qat'iy mexanizmini o'rnatishga harakat qilib, standartlashtirilgan yangi terminlarni yaratish va moslashtirishga harakat qildilar. Bu yo'llar til tadqiqotchilari tomonidan turlicha tasniflanadi, lekin ularning aksariyati mumtoz arab grammatikachilarining ilmiy fikrlarini inobatga olib mazkur klassik uslublarni arab tiliga yangi terminlarni yaratish va moslashtirishning asosiy usuli deb hisoblaganlar, masalan:

1. Ishtiyoq.
2. Istinbot (kashfiyot);
3. Arablashtirish;
4. Tarjima orqali hosil qilish (qarz tarjimasi / kalkalash) [9].

Xorijiy terminlarni arab tiliga o'zlashtirish qobiliyatini aniqlash uchun bu yo'llarning barchasini bir-biri bilan taqqoslaymiz.

Terminlarni arablashtirishga birinchilardan bo'lib – shu asrning boshlarida – nazariya va amaliyotda katta hissa qo'shgan doktor Ahmad Iso shunday degan edi: "Bizda bu masalada beshta yo'nalish bor va biz yuzlarimizni o'sha tarafga buramiz. Vaziyat, zarurat nuqtai nazaridan kelib chiqib ulardan birin ketin foydalanamiz. Tilimiz uchun eng og'ir qarorga faqatgina barcha kuch va imkoniyatlarimizni sarf qilgandan keyingiga yuramiz"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> د. أحمد عيسى: التهذيب في أصول التعريب. مصر: مطبعة مصر: - 2017. ص. - 113.

Mana shu fikrlarni yoritib ortidan, terminlar yaratishdagi uslub ketma-ketligini bayon qilgan. Unga ko'ra:

1. Tarjima uslubi.
2. Ishtiyoq.
3. Majoz. (Mazkur usullar bilan ham imkoni bo'lmasa:)
4. Naht.
5. Ta'rib. (O'zlashtirish).

Bag'dod ilmiy terminlar agentligi (1926 m) terminlar yaratish qoidalari va dasturlari deya nomlagan jamlanmasida yuqorida keltirilgan ikki ishtiyoq va ta'rib uslubini kiritgan. Iroq ilmiy kengashi ham shu yo'nalishdan yurib termin yaratish uslublarini ishtiyoq, ta'rib va naht deya keltirgan.

Zamonaviy arblashtirish namoyondalaridan Mustafu Shahobiy: "Turli ilmlarda naqlning umumiy shartlari – qadim naql ulamolari hamda arab mualliflari umum iste'moli quyidagilardan chetga chiqmaydi. Ularning ketma ketligi bunday:

1. Ajnabiy so'z lafzning ma'nosini beridigan yangi lafzni izlab topish. Bu bizdan arab tilidagi ilmiy qomuslar, qadimgi kitoblarda mavjud ilmiy so'zlardan batafsil xabardor bo'lishni talab qiladi.

2. Ajnabiy so'z yangi, ya'ni tilimizda muqobiliga ega bo'lmasa, tarjima imkoniyati darajasida pma'nosini tarjima qilamiz yoki yaqin (ma'nodagi) arabiy so'z ishtiyoq qilamiz. Bunday arabiy lafz-so'zni yaratishda yuqorida aytilgan vositalardan foydalanamiz. Ular: ishtiyoq, majoz, naht va mazjiy (sodda) tarkibdir.

3. Mazkur uslublar bilan arabiy lafzda termin qila olmasak, qoidalari rioya qilgan holda ta'rib – arblashtirishga tayanamiz" degan<sup>2</sup>.

4. Ayrimlar esa: "Qiyos, ishtiyoq, qalb, ibdol, naht, istirjol va ta'rib" deyishgan<sup>3</sup>. Lekin barcha fikrlarni jamlasak termin yasash usullari yuqorida aytilganlar jumlasidan chetga chiqmaydi.

Nazarayida bunday xilma-xillikning kelib chiqishini Doktor Mahmud Muhammad Xasora "...fikr egalarining tilshunos emasligi yoxud masalaning bayonini (to'laqonlik) tilshunoslik nuqtai nazaridan yoritmaganliklari" deya izohlaydi<sup>4</sup>. Qolaversa uslubiyat sifatida berilgan tushunchalar bir-biri ichiga kiradigan sohaviy bo'linishga ham egadir.

Doktor Mahmud Muhammad Xasora fikriga tayanib til va mantiq nuqtai nazaridan terminlarni hosil qilish yo'llarini quyidagi qismlarga ajratishimiz mumkin.

1. Tarjima uslubi. Eski yoki yangi muqobil arabcha tanish so'z qo'yiladi. Bu usul terminni boshqa tildan so'zma-so'z tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Masalan,

<sup>2</sup> أ. مصطفى الشهابي: المصطلحات العلمية في اللغة العربية. ص. 93.

<sup>3</sup> د. عبد الكريم خليفة: اللغة العربية والتعريب في العصر الحديث - ص. 221-222.

<sup>4</sup> د. محمود محمد خسارة. علم المصطلح وطرائق وضع المصطلحات في العربية. بيروت - دار الفكر. 2013. - ص. 13.

“brainwashin” termini to'g'ridan-to'g'ri “غَسْلُ دِمَاغٍ” [g'oslu dimaag'] (miya yuvish) deb tarjima qilinadi.

2. Tavlid (paydo qilish). Ajnabiy terminga ishtiyoq va majoz usullaridan foydalanib muqobil yangi so'z ishlatish. Bunda (2.1) ishtiyoqning <sup>5</sup>: sarfiy (morfologik), ibdol, taqlib, naht va ilhoq turlari ham qo'llaniladi. Shuningdek (2.2) majozning ham: mursal, ist'iora, ihyo turlari ham ishlatiladi. D.M. Muhammad Xasora mazkur ikki uslubni tavlid deya nomlagan<sup>6</sup>. Bunga sabab yangi terminlar arabcha o'zakdan arabiy so'zlar paydo qilish qoidalariga monand tug'iladi-yuzaga keladi.

Ishtiyoq bu umum tilshunoslikda derivatsiya deb ataladi. Derivatsiya arab tiliga xorijiy terminlarni qabul qilish va ularni o'ziga moslashtirish imkoniyatini beradi; arab tilini xorijiy terminlarga semantik jihatdan teng bo'lgan mahalliy so'zlar bilan boyitishning eng muhim usuli sifatida ham ishlaydi. Xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishda boshqa usullarning qobiliyati derivativ solishtirish mexanizmi bilan tekshiriladi. Bu mexanizm beshta mezonga asoslanadi:

- (1) semantik saqlash;
- (2) oson kognitiv kirish;
- (3) morfologik vaznlar to'plami;
- (4) vazn to'plamiga muvofiq qayta yaratish qobiliyati;

(5) arab tilining o'zini himoya qilish tizimini qo'llash. Ushbu taqqoslash natijalari shuni ko'rsatadiki, derivatsiya xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirish va o'zlashtirishning eng xavfsiz va samarali usuli bo'lib, uni arab tilining “ishonchli qo'riqchisi” deb atash kerak.

3. Qarz olish (al-iqtirod). D.M. Muhammad Xasora qarz olishni ikkiga ajratadi.

- 1) Ta'rib lafziy. Ajnabiy so'zni ayrim harflari, tovushlari yoki shakl-vaznini saqlagan holda arab tili tovush tizimiga moslab ishlatish. (Bu arabcha fonologiya va morfologiyaga mos keladigan xorijiy so'zni o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Masalan, inglizcha “kompyuter” so'zi arabchada “كُمبِيُوتَر” (kumbiyūtar)ga aylanadi).

- 2) Tadxil. Arab tili tovush tizimi, morfologik xususiyatlari buzilgan holda qabul qilingan terminlar. Masalan: “الِكْتِرُومُوْتُوغَرَاْفِيَا” (iliktirumutug'rofiya) [rang jihatidan farqlanish] ma'nosida qabul qilingan.

<sup>5</sup> Bu mavjud o'zaklardan yangi so'z yasash usuli. Arab tilida undosh undoshlarga asoslangan boy hosila tizimi mavjud (odatda uchta, ba'zan to'rtta). Masalan, “yozmoq” ma'nosini bildiruvchi “كتب” (ktb) o'zagidan “كتاب” (kitab) [kitob], “كاتب” (kātib) [yozuvchi] va “مكتبة” (maktaba) (kutubxona) olingan.

<sup>6</sup> محود محمد خسارة. علم المصطلح وطرائق وضع المصطلحات في العربية. بيروت – دار الفكر. 2013. – ص. 14.

Mana shular uning yondashuviga ko'ra barcha terminlar paydo qilish uslubiyatini qamrab oladi. Bizningcha mana bu qism ham alohida ko'rsatilishi muhimdir.

4. Semantik kengaytma (at-tvisy'ud dilaliy): Mavjud so'zlarga yangi tushunchalarni joylashtirish uchun yangi ma'nolar beriladi. Masalan, “هاتف” (haatif) dastlab “qo'ng'iroq qiluvchi” yoki “ovoz” degan ma'noni bildirgan bo'lsa, hozirda “telefon” uchun ishlatiladi.

Bu usullar arab tilida so'zlashuvchilarga tilning o'ziga xos tuzilishi va madaniy merosini saqlab qolgan holda yangi terminlarni yaratishga yordam beradi.

Ishtiyoq-derivatsiya ildizning asl ma'nosini saqlab qolgan holda arab tilida so'zlashuvchilarga xorijiy terminning ma'nosi doirasiga oson kirib borish va uni arab tiliga qulay moslashishini taminlaydi. Derivatsiya arab tilida asos hisoblanadigan uch harfdan ibrat undosh ildiz tizimidan (gohida to'rta) foydalangan holda eng yaqin semantik ekvivalentni topish uchun qo'llaniladi va u mashhur standartlashtirilgan arab morfologik vaznlari orqali hosil bo'ladi. Misol uchun, motor so'zini arabchaga moslash uchun biz arab tilida teng semantik ildizni topishimiz va keyin uni tegishli arabcha vazn orqali shakllantirishimiz kerak, bu esa “إسم آلة” (ismu aalah) [ish harakat vosita nomi] vaznidir. Motor-dvigatel so'zi mashinani boshqaradigan mexanik vositani bildirganligi sababli, unga teng semantik ildiz “حرك” (hrk) [ishlamoq, harakatga keltirmoq] so'zini olamiz. Hamda huddi shu xususiyatni beradigan morfologik vazn “مفعّل” (mufa'ial)ni olamiz. Bu odatda asbob otini hosil qilish uchun ishlatiladi. Shunda motor so'zini arab tiliga “محرّك” (muharrrik) so'zi bilan moslashtiramiz. Qolganlari o'xshatish yo'li bilan yasaladi: “مكثّف” (mukassiaf) [kondansator], “كثّف” (ktaf) [quyuq] so'zidan olingan; “مرمّز” (murammiz) [koder, kodyozuvchi, “رمز” (rmz) [kod] degan so'zdan olingan.

Arabcha ildizning etimologik asoslarini saqlab qolish qobiliyati chet el terminlarini arab tiliga moslashtirish uchun ishlatilganda aniq bo'ladi. Chunki bu holatda ildiz va hosila termin o'rtasidagi semantik bog'lanish saqlanib qoladi. Bu jarayon yangi terminlarning arab tilida so'zlashuvchilarga asos undosh elementlari vositasida lug'aviy ma'nosini tanib olish va morfologik vazn vositasida real til xususiyatlarini tanib olish imkonini beradi. Masalan, vosita nomini bildiradigan mashhur arabcha vazn “مفعّل” (mif'al) bo'lib, bu vaznga solingan harqanday ish-harakat nomidan o'sha ish-harakatni amalga oshirish vositasi degan so'z hosil bo'ladi. Bunga: “صعد” (sa'ada) o'zagidan “مفعّل” (mif'al) vazni ila “مصعد” (mis'ad) [lift] – yuqoriga ko'taruvchi moslama degan so'z hosil qilingani yorqin misoldir.

Xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirishning ushbu usullarini tekshirish uchun ularni bir-biri bilan solishtirib, eng kuchlisini ko'rsatib, arab tiliga xorijiy

terminlarni o‘zlashtirib, ularning semantik va grammatik tuzilmalarini arab tiliga tushunarli qilib qo‘yishimiz kerak. Bu ish oson emas, chunki so‘z yasalishi va fleksiya turiga qarab tillar turli guruhlariga bo‘linadi. Tasniflash yangi so‘zlarning yaratilish usuli bilan belgilanadi. Til umuman tugallangan narsa emas; u har doim belgilangan qoidalar bilan yangilanadi [10].

Arablashtirish xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirish usuli sifatida arab tilida so‘zlashuvchilarning asl arab ildizi ma‘nosini undosh tovush bilan tanib olishlari uchun semantik xizmatni bajara olmaydi. Ma‘no har doim shu undoshlar bilan bog‘lanadi [12], lekin arablashtirish xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirish uchun ba‘zi oddiy fonologik yoki morfologik o‘zgarishlarni amalga oshirishga tayanadi. Masalan fors tilidan diram so‘zi “درهم” (dirham) bo‘lib o‘tgan. Yoki hech qanday muhim o‘zgarishlar qilmaydi. Masalan “الكمبيوتر” (al-kombyuter) kompyuter so‘zini biroz o‘zgartirib talffuz qilingan. Lekin bu terminlarni moslashtirsak, arab tilida so‘zlashuvchi ularni osonlikcha quyidagicha tushunadi: “حاسوب” (haasub) (kompyuter – “حسب” dan, sanash, o‘ylash, ko‘rib chiqish o‘zagidan olingan. “ناسوخ” (nasuux) [fax mail]. Bu so‘z “نسخ” (nsx) o‘zagidan “nusxa ko‘chiruvchi”, “dublikat” ma‘nolarida o‘zlashgan.

Arab tiliga **ishtiyoq** – **derivatsiya** bilan moslashtirilgan xorijiy terminlar har doim asl arab ildizi bilan semantik assotsiatsiyani saqlab turadi, masalan: “مكبس” (mikbas) [compressor] so‘ziga o‘xshash. Buning arabcha ildizi “كبس” (kbs) [siqish] bilan bog‘liq. “مقاب” (misqaab) [drel – parmalash asbobi] “تقب” (sqb) [teshik ochmoq] bilan bog‘liq. Arab tilida so‘zlashuvchilar moslashtirilgan terminning ma‘nosini osongina tanib oladi, chunki u terminning asosiy ma‘nosini tushunish uchun ildiz elementlariga tayanadi va keyin u moslashtirilgan terminning hosila ma‘nosini vazn shakli bo‘yicha bilib oladi. Ishtiyoq orqali yaratilgan va moslashtirilgan terminlar arab tili uchun samarali bo‘lishi mumkin, chunki aynan ular yangi arabcha so‘zlarni bera oladi. “حاسوب” (haasub) [kompyuter], “مكبس” (mikbas) [compressor], “مقاب” (misqaab) kabi moslashtirilgan terminlar arabcha o‘z-o‘zini himoya qilish tizimiga ko‘ra yasaladi, chunki ular arabcha ildizlar bilan bog‘liq bo‘lib, arabiy vaznlar to‘plami bilan shakllangan va ular arab tilida yangi so‘zlarni yaratishga qodir.

Yangi terminlarni arabchaga moslashtirishning ikki yo‘li sifatida **arabchallashtirish** bilan **ishtiyoq** usullarini solishtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, arablashtirish xorijiy terminlarni arabchaga moslashtirishning najot yo‘li emas, chunki:

(1) arabcha ildizning semantik mazmuni buziladi, chunki arablashgan atama arabcha ildiz bilan bog‘lanmagan.



(2) arab tilida so'zlashuvchilar arablashgan atamaning asosiy ma'nosiga osonlikcha erisha olmaydilar, chunki atamalar ona tilida so'zlashuvchilar uchun g'alati eshitiladi va ularni tushunishga qiynaladi;

(3) Arabcha terminlar har doim ham arabcha vaznlar to'plamidan hosil bo'lavermaydi. Arablar so'zlarning asosiy ma'nolarini ildiz elementlari orqali taniydilar. Masalan, "كتب" (k-t-b) buning asosiy ma'nosi "كتب" (kataba)da yozish (yozmoq); "كاتب" (kaatib)da yozuvchi suratida ifoda topadi. Yoki "خلق" (xalq) "خلق" (xalaqa) [yaratish] o'zigaga mansub. Yana bu o'zakdan "خلق" (xuliqa) [u yaratilgan], "خالق" (xaaliq) [yaratuvchi] kabi hosila ma'nolari qolip-vaznlar bilan tushuniladi. Demak, arab tilidagi hosila so'zlar vazn to'plamlari bilan aniq qofiyalangan;

(5) arabchalashtirib arabchaga moslashtirilgan terminlar tilning o'zini himoya qilish tizimidan tashqarida.

Xorijiy terminlarni arab tiliga moslashtirish usuli sifatida tarjimani ishtiyoq bilan solishtirib bo'lmaydi, chunki u tarjimaga tayangan va arabcha so'zni xorijiy termin bilan teng topishning boshqa usullariga tayangan. Derivatsiyani boshqa usullar bilan solishtirish natijalari tarjimaning xorijiy terminlarni arab tiliga moslash qobiliyatini ko'rsatish uchun yetarli.

Biz ishtiyoq-derivatsiya bilan solishtiradigan yana bir yo'l – al-istinbaat bo'lib, bunda arabcha o'zak bilan xorijiy terminning har qanday majoziy assotsiatsiyasini izlanadi va uni arabcha vazn bilan ifodalanadi. Ayrimlar buni metaforik hosila ham deb atashadi [13]. Masalan: "قار" (qitaar) [poyezd] so'zo. Dastlab bu so'z tuyalar karvonini tasvirlash uchun ishlatilgan [9].

Bu yo'l to'liq ishtiyoq qoidalariga asoslanadi, chunki u arab ildizi bilan semantik assotsiatsiya qilgan holda arabiy vazn to'plami bilan to'liq qofiyalashni talab qiladi. Lekin ishtiyoqdan farq qiladi. Al-istinbat yoki majoz har doim arabcha so'zlarning majoziy ma'nosidan foydaladi. Biroq, istinbot usulida olinayotgan so'z arabcha so'z bilan assotsiatsiyaga muhtoj va u vazn bilan shakllanadi; o'zlashtirilgan atamaning asosiy ma'nosini bilish uchun to'g'ridan-to'g'ri kognitiv kirishish imkoniyatini bera olmaydi.

## **XULOSA**

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, derivatsiya klassik va zamonaviy arab tilshunoslari tomonidan xorijiy terminlarni arabchaga moslashtirish uchun qo'llaniladigan eng xavfsiz usuldir; Shuningdek, arab tili qoidalarini saqlash bo'yicha ham tizimli ish olib borilmoqda, bu orqali xorijiy terminlarni moslashtirish va yangi arabcha so'zlarni yaratish mumkin. Xorijiy terminlarni moslashtirish uchun arab tilida derivatsiya faol qo'llaniladi, chunki u:

- arab ildizlarining semantik saqlanishini kafolatlaydi;
- moslashtirilgan terminlarning muhim ma'nosini tushunish uchun oson kognitiv kirish imkonini beradi;
- vaznlar to'plami asosida terminlarni hosil qila oladi;
- moslashtirilgan xorijiy terminlarni vaznga muvofiq yangi so'zlarni yaratishga imkon beradi;
- tilning o'zini himoya qilish tizimini qo'llab quvvatlaydi;

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)**

1. Al-Farāhīdī A.A., Mahdī Makhzūmī, (Ed), Ibrāhīm Sāmarrā'ī (Ed). (1980-1985). Kitāb Al-'ayn. Wizārat al- Thaqāfah wa-al-I'lām, Baghdad, Iraq (In Arabic).
2. Al-Ḥamzawy M.R. (1986). Al- Luḡa Al-'arabia wa al-ḥadatha, (2-d ed). Beirut: Dar Al-ḡarb al-islami. (In Arabic).
3. Al-Ṣālih Ṣ. (1968). Dirasast fi fiqh Al- Luḡa. (3-d ed). Lebanon: Dar al-'illm (In Arabic).
4. Sībawayh A. U., Hārūn A. M., (Ed). (2004). Al-Kitāb. (5-th ed.). Al-Qahira: Maktabat al-Khānjī (In Arabic).
5. Al-foadi R.A. (2016). Printsipy fonogrammatiki v prilozhenii k progressivnoi yazykovoii kategorizatsii arabskikh i russkikh kornei. Philological Sciences. Scientific Essays of Higher Education, 6, 20-26.
6. Al-Jawhari I.H., A.A. 'Aṭār (Ed). Al-ṣiḥaḥ (Taj al-luḡa wa-ṣiḥaḥ al-'A rabia). Al-Qahira: Dar Al-kitāb al-Arabi, Al-Qahira, Egypt (In Arabic).
7. Stetkevych J. (1970). The modern Arabic literary language. Chicago: Chicago University Press.
8. Ibn Jinni A.U., Al- Najjar M.A. (ed). (without date). Al-Khaṣ'ish vol.1. Beirut: Dar Al-Huda.
9. Baker M. (1987). "Review of Methods Used for Coining New Terms in Arabic." Meta 322, 186–188.
10. Karam R.A. (2009). Slovoobrazovatel'naya struktura zookompozitov s glagolnoi osnovoi v yazykakh razlichnykh tipov. "Proceedings of Voronezh State University. Series: Linguistics and intercultural communication", 2, 105-109.
11. Al-Foadi R.A. (2014). Odin Klyuch ot deri v deskrayniy mir arabskogo yazyka – fleksiya: osnovnyia pokazateli.
12. Begmatova B. Sharqshunoslik masalalari ilmiy maqolalar to'plami. Islom huquqiga oid terminlarning lug'aviy va istilohiy ma'nolari. –T., 2009. B .51-52.
13. Xojiev A. Termin tanlash mezonlari. –T.: Fan, 1996. b.75.